

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

**2024/3-SON
ILOVA TO'PLAM**

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

X.M.Shermatova, G.A.Karaboyeva	
Zamonaviy axborot texnologiyalarining yosh avlod tarbiyasiga psixologik ta'siri tahlili.....	141
I.T.Tojiboev, Z.X.Komilova	
Professional ta'lim muassasalarida dasturlash tillarini o'qitishning zamonaviy usullari	145
Z.X.Mamatova	
Zamonaviy informatika mashg'ulotlariga qo'yilayotgan metodik talablarni takomillashtirishning tashkiliy-pedagogik omillari.....	151
A.Y.Axmedov, Z.F.Sherqo'ziyeva	
Ta'lim samaradorligini oshirishda innovatsion va zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish	156
B.B.Djalalov	
Interfaol o'qitish jarayonida bo'lajak o'qituvchilarda innovatsion kompetentlikni shakllantirishning pedagogik tizimi.....	160
B.S.Siddiqov	
O'quvchilarda aksiologik kompetensiyalarni rivojlantirish mexanizmlari.....	165
D.A.Yo'ldosheva	
Akmeologik yondashuv asosida bo'lajak pedagoglarning kreativ kompetentligini rivojlantirish zamonaviy pedagogikada zaruriyat sifatida	170
I.I.Tuychiyeva, Z.Axunova	
Yuqori sinf o'quvchilarining ma'naviy kompetentligini rivojlantirishning pedagogik ahamiyati....	174
J.U.Tojiboyev	
Talabalarning badiiy-estetik kompetentligini rivojlantirish texnologiyasi	178
M.O.Karimova, X.X.Tojiyev	
Bo'lajak chaqiriqqacha harbiy ta'lim o'qituvchilarining kasbiy-pedagogik tayyorgarligini rivojlantirish muammosi	183
H.A.Абдуллаева	
Педагогические проблемы формирования исследовательских компетенций будущих учителей.....	190
N.S.Temirov	
Oliy o'quv yurtida mustaqil ta'lim orqali talabalar bilimini oshirishning zamonaviy yondashuvlari	194
O.F.Hamrayeva	
Talabalarda irodaviy sifatlarni shakllantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari.	199
Sh.O.Aripov	
Xorij olimlarining o'g'il bolalarni oilaviy munosabatlarga tayyorlash jarayonida gender yondashuvni tadbiq etishga doir fikirlari	204
Sh.N.Mehmonaliyev	
Koshifiyning adabiy-pedagogik merosi va uning yoshlarning ma'naviy ahloqiy qadriyatlar tizimiga ta'siri.	208
U.Q.Maqsudov	
Modernizatsiyalash sharoitlarida talabalarning kasbiy dunyoqarashni shakllantirish imkoniyatlari.....	212
O.N.Fozilova	
Maktabgacha ta'limda xorijiy mamlakatlar tajribasi (Buyuk Britaniya)	217
M.E.Xallokova	
Bo'lajak tarbiyachilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda o'yin texnologiyasining faollashtiruvchi omillari.....	222
I.S.Soliyev	
Maktabgacha ta'lim tarbiyachilarining axborot kompetentligini rivojlantirishning tashkiliy omillari	227
F.O.O'rinova	
Bo'lajak o'qituvchilarda intellektual kompetentlikni rivojlantirish zarurati va ijtimoiy ahamiyati	232
R.Y.O'rinov	
Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining intellektual faolligini oshirishning integrativ texnologiyalari.....	238



UO'K: 37.091.33.378.02

MODERNIZATSIYALASH SHAROITLARIDA TALABALARNING KASBIY DUNYOQARASHNI SHAKLLANTIRISH IMKONIYATLARI**ВОЗМОЖНОСТИ СФОРМИРОВАТЬ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЕ МИРОВОЗЗРЕНИЕ У СТУДЕНТОВ В УСЛОВИЯХ МОДЕРНИЗАЦИИ****OPPORTUNITIES TO FORM A PROFESSIONAL WORLDVIEW AMONG STUDENTS IN THE CONTEXT OF MODERNIZATION****Maqsudov Ulug'bek Qurbonovich**

Farg'ona davlat universiteti, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Annotatsiya

Maqolada bugungi ta'lim sharoitlarida talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning zamonaviy tendensiyalari sifatida kasbiy dunyoqarashni shakllantirish, bo'lajak mutaxassislarining dunyoqarashi bilan bog'liq aksiologik kompetentlik masalalari yoritilgan. Talablarning kasbiy faoliyatga tayyorlash mexanizmlari, texnologiya va metodlarini takomillashtirish bugungi kunning dolzarb muammosi sifatida qaralayotgan bir paytda pedagogika sohasining ustivor vazifalaridan biri zamonaviy yondashuvlarga tayangan holda bo'lajak mutaxassislarini kasbiy tayyorlashdan iborat. Shuningdek, kasbiy dunyoqarash masalasi turli davrlarda Sharq alloma va olimlar, G'arb tadqiqotchilari, olimlar, pedagog, psixolog, faylasuflari tomonidan tadqiq etilganligi va uning zamon bilan hamnafas holda ta'lim jarayoniga talqin qilinganligi aniqlashtirilgan. Pedagogik diagnostika yordamida o'quvchilarni rivojlantirish va pedagogik pedagogik korreksiya, o'qituvchilar va ota-onalarga maslahat berish va o'qitish sohasidagi bilim va tajriba, kasbiy yo'nalganlik, kasbiy va shaxsiy o'zini-o'zi rivojlantirish va bu jarayonlarning birligini ta'minlaydigan sharoitlar yaratilganligi o'rganilgan. Shunday ekan maqolada ushbu masalaga muallif tomonidan turlicha yondashuvlar asosidagi qarashlar, ta'lim oluvchilarda shakllangan kasbiy dunyoqarashi mezonlari va ko'rsatkichlari aniqlangan hamda ta'lim muassasalarining talabalari o'zlashtirishi lozim bo'lgan kasbiy tayyorgarlik mazmuni yo'nalishlari, tahlillar va xulosalar berilgan.

Аннотация

В статье освещаются вопросы формирования профессионального мировоззрения как современных тенденций подготовки учащихся к профессиональной деятельности в современных условиях образования, аксиологической компетентности, связанной с мировоззрением будущих специалистов. В то время как совершенствование механизмов, технологий и методов подготовки требований к профессиональной деятельности рассматривается как актуальная проблема сегодняшнего дня, одной из приоритетных задач педагогической отрасли является профессиональная подготовка будущих специалистов с опорой на современные подходы. Также установлено, что вопрос о профессиональном мировоззрении в разное время исследовался восточными учеными и учеными, западными учеными-исследователями, педагогами, психологами, философами и его интерпретация в соответствии со временем в образовательном процессе. С помощью педагогической диагностики изучаются знания и опыт в области развития и педагогической коррекции учащихся, консультирования и обучения педагогов и родителей, профессиональной ориентации, профессионально-личностного саморазвития и создание условий, обеспечивающих единство этих процессов. Таким образом, в статье изложены взгляды автора на этот вопрос на основе различных подходов, определены критерии и показатели профессионального мировоззрения обучающихся, а также даны направления, Анализ и выводы по содержанию профессиональной подготовки, которую должны освоить студенты образовательных учреждений.

Abstract

The article highlights the issues of the formation of a professional worldview as modern trends in preparing students for professional activity in modern educational conditions, axiological competence related to the worldview of future specialists. While the improvement of mechanisms, technologies and methods of preparing requirements for professional activity is considered as an urgent problem of today, one of the priorities of the pedagogical industry is the professional training of future specialists based on modern approaches. It is also established that the issue of professional worldview has been studied at various times by Eastern scientists and scientists, Western research scientists, educators, psychologists, philosophers and its interpretation in accordance with time in the educational process. With the help of pedagogical diagnostics, knowledge and experience in the field of development and pedagogical correction of students, counseling and training of teachers and parents, professional orientation, professional and personal self-development and the creation of conditions ensuring the unity of these processes are studied. Thus, the article presents the author's views on this issue on the basis of various approaches, defines criteria and indicators of the professional worldview of students, as well as provides directions, analysis and conclusions on the content of vocational training that students of educational institutions should master.

Kalit so'zlar: dunyoqarash, kasbiy dunyoqarash, kasbiy tayyorgarlik, talaba, pedagogika, pedagogik jarayon, bo'lajak o'qituvchi.

Ключевые слова: мировоззрение, профессиональное мировоззрение, профессиональная подготовка, студент, педагогика, педагогический процесс, будущий педагог.

Key words: worldview, professional worldview, professional training, student, pedagogy, pedagogical process, future teacher.

KIRISH

Dunyoda bo'lajak pedagoglarning kasbiy dunyoqarashini rivojlantirish, ijtimoiylashuvni ta'minlash, mutaxassislar tayyorlash tizimini rivojlantirishning samarali texnologiyalarini ishlab chiqish, pedagogika fanining eng samarali usullari interpretatsiyasidan keng foydalanish, kasbiy dunyoqarashning xususiyatlariga doir ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirilmoqda.

Bugungi transformatsiya jarayonlarida talabalarni pedagogik faoliyatga tayyorlash jarayoni samaradorligini oshirish texnologiyalari sohasida ilmiy-pedagogik modullarini joriy etish, milliy malaka talablarini ishlab chiqish hamda ularni turli darajadagi milliy ta'lim tizimlari bilan uyg'unlashtirish muhim vazifa sifatida belgilangan.

O'zbekiston Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev "Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz", – deb ta'kidlaydi.[2] Bejizga, 2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyoq strategiyasida "...inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish; ma'naviy taraqqiyoqni ta'minlash va sohani yangi bosqichga olib chiqish; milliy manfaatlardan kelib chiqqan holda umumbashariy muammolarga yondashish" kabilar ustuvor yo'nalish sifatida belgilab o'tilmagan.[2]

Shaxsning ma'naviu-axloqiy qiyofasi, hayotiy yondoshuvlari, uning uchun ustuvor ahamiyatga ega bo'lgan qadriyatlar hamda axloqiy tamoyillar mohiyati u ega bo'lgan dunyoqarash mazmuni orqali ifodalanadi. O'z navbatida dunyoqarashning boyib borishi shaxsning shaxsiy sifat va fazilatlarining tobora barqarorlashuvini ta'minlaydi. O'z mazmunida ezgu g'oyalarni ifoda etgan dunyoqarash shaxs qiyofasida namoyon bo'layotgan ijobiy fazilatlarining boyib borishiga yordam beradi.

Dunyoqarash tabiat, ijtimoiy jamiyat, tafakkur hamda shaxs faoliyati mazmunining rivojlanib borishini belgilab beruvchi dialektik qarashlar va e'tiqodlar tizimidir. Mazkur tizim doirasida ijtimoiy-g'oyaviy, falsafiy, iqtisodiy, tabiiy-ilmiy, ma'naviu-axloqiy, estetik, huquqiy va ekologik bilimlar negizida shakllangan e'tiqodlar asosiy tarkibiy unsurlar sifatida namouon bo'ladi. Muayyan dunyoqarashga ega bo'lish shaxsda atrof-muhit, ijtimoiy munosabatlar, mehnat faoliyati va ishlab chiqarish jarayoni, sub'ektlarga nisbatan ma'lum munosabatning qaror topishi, shuningdek, shaxs tomonidan zimmasidagi ijtimoiy burchlarini to'laqonli anglash va ularni bajarishga nisbatan mas'uliat tuug'usiga ega bo'lishi uchun zamin yaratadi. Shaxsda dunyoqarash izchil, tizimli, uzluksiz hamda maqsadga muvofiq tashkil etilayotgan ta'lim-tarbiyaning yo'lga qo'yilishi, uning turli yo'nalish va mazmundagi ijtimoiy munosabatlar jarayonida faol ishtirok etishi, shuningdek, o'z-o'zini tarbiyalab borishi natijasida shakllanadi. Yosh avlod dunyoqarashining shakllanishida ta'lim muassasalarida o'qitilishi yo'lga qo'yilgan tabiiy, ijtimoiy va gumanitar fanlar asoslarining ular tomonidan puxta o'zlashtirilishi muhim o'rin tutadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Sharq mutafakkirlari o'z asarlarida bilish hamda inson aqliy tafakkuri masalalariga alohida o'rin bergan. Jumladan, Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Yusuf Xos Hojib, Bahovuddin Naqshbandiy, Alisher Navoiy, jadid pedagoglardan Abdulla Avloniy ijodida yoshlarning bilim olishi, ilm egallashi, o'z-o'zini rivojlantirishi bilan bog'liqligi ilmiy-nazariy jihatdan asoslab berilgan.[4;45]

Kasb ta'limini rivojlanish jarayoni va tendensiyalari, bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy pedagogik faoliyatga tayyorlash muammolari R.X.Djurayev, U.I.Inoyatov, Z.K.Ismailova, N.A.Muslimov, U.N.Nishonaliyev, Q.T.Olimov, X.F.Rashidov, O.X.To'raqulov, A.R.Xodjabayev, Sh.S.Sharipov, M.B.Urazova, J.A.Hamidov va boshqalarning ishlarida atroflicha yoritilgan.[6;37]

Kasbiy dunyoqarashni shakllantirish muammosi, dunyoning ilmiy manzarasi, o'rganilayotgan bilish metodologiyasi xorijiy pedagog, psixolog va faylasuflar P.Alekseyev, V.Andrushchenko, L.Guberskiy, I.Dobronravova, S.Kirilenko, I.Lakatos, G.Platonov, A.Spirkin va boshkalar tomonidan tadqiq etilgan.[5;8]

O'quvchilarning ilmiy va kasbiy dunyoqarashini shakllantirish A.Bugayev, M.Golovko, S.Goncharenko, L.Zorinalarning tadqiqotlari, S.Korshak, A.Lyashenko, M.Martenyuk va boshqalarning bugungi kunda dunyoqarashni o'rganishga bag'ishlangan ilmiy izlanishlari mavjud bo'lsada bu masala dolzarbligicha qolmoqda.

So'nggi yillarda kasbiy dunyoqarashini shakllantirish masalalari xorijiy pedagog, psixolog olimlari tomonidan keng doirada tadqiq qilingan bo'lib, ular o'ziga xos yondashuvlarni ilgari suradilar. Jumladan, E.V.Bodnarchuk, E.V.Dmitriyeva, T.Y.Jeleznova, A.L.Joxova, V.P.Jukova, S.Y.Ribina va boshqalarning tadqiqotlarida "kasbiy dunyoqarash" mavzusi o'z aksini topgan.

Psixologlar dunyoqarashni shaxsiyatni rivojlantirish kontekstida o'rganadilar, bu L.I.Bojovich, B.I.Dodonov, G.E.Zaleskiy, A.G.Kovalev, I.M.Krasnobayev, N.A.Menchinskaya, K.Muxina, V.S.Muxina, Y.L.Samarina, T.S.Tambovseva, B.M.Teplova va boshqalarning tadqiqotlarida aniq aks ettirilgan. V.V.Gainulina, I.Y.Lerner, B.T.Lixachev, E.I.Monoszon, G.V.Muxametzyanova, T.I.Oyzerman asarlarida "dunyoqarash" tushunchasi haqida pedagogik tushunchalar berilgan.

Kasbga yo'naltirish, kasb tanlash, kasbiy tayyorgarlik masalalari S.Y.Batishev, A.A.Bulgakov, B.S.Gershunskiy muayyan ixtisoslikka ega bo'lgan ishchi kadrlarni yetishtirish; A.P.Belyayeva, V.P.Bespalko, N.I.Dumchenko, I.D.Klyuchkov kasbiy-texnologik ta'lim mazmunini takomillashtirish; P.R.Atutov, Y.K.Vasilyev politexnik ta'lim; A.I.Sherbakova, N.V.Kuzmina, A.K.Markova, F.N.Gonobolin o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini shakllantirish; M.I.Morozova, YE.V.Rodkina, Y.I.Rudin, Z.R.Safina, V.A.Slastenin, N.N.Azizxodjayeva, J.G.Yo'ldoshev innovatsion texnologiyalar orqali kasbiy tayyorgarlikni shakllantirish; Sh.E.Qurbanov, E.A.Seytxalilov kasbiy ta'limni shaxs, jamiyat va ishlab chiqarish o'rtasidagi integratsiya asosida yo'lga qo'yish muammolarini o'rganganlar.

Xorij olimlaridan J.Rouche, G.Baker, M.Daniel, E.King, Ch.Knapper, A.Cropley, Z.Bathory kabi tadqiqotchilar pedagoglar tayyorgarligini takomillashtirish texnologiyalariga doir ilmiy izlanishlarni amalga oshirganlar.

Adabiyotlar sharhi shuni ko'rsatadiki, rus tadqiqotchilari asarlarining muhim qismi turli o'quv fanlari orqali dialektik-materialistik, ilmiy dunyoqarashni shakllantirishga bag'ishlangan. Shu bilan birga, oliy o'quv yurtida va xususan Oliy ta'limda talabalarning dunyoqarashini shakllantirish muammosi kam o'rganilgan. Biz muammoni o'rganish jarayonida bo'lajak mutaxassis shaxsining dunyoqarashini shakllantirish muammosiga bag'ishlangan biron bir milliy asarni aniqlamadik. Uni o'qitish metodikasi sohasidagi nazariy ishlanmalar ba'zi jihatlarida o'z ahamiyatini yo'qotdi, universitetlarda fanlarni o'qitishning o'ziga xos xususiyatlari, asosli gumanitar tayyorgarlikdan mahrum bo'lgan talabalar uchun yetarlicha o'rganilmagan. Shu munosabat bilan "dunyoqarash" tushunchasini aniqlashtirish va shaxs dunyoqarashining tuzilishi haqidagi mavjud g'oyalarni tahlil qilish, uni shakllantirishning samarali pedagogik texnologiyalarini aniqlash va universitetda fanlarni o'qitish jarayonida bo'lajak mutaxassisning dunyoqarashini shakllantirish modelini ishlab chiqish zarur.

NATIJAR VA MUHOKAMA

Talabalarni kasbiy tayyorgarlik sifatini, ularda erkin, faol, mustaqil fikrlay olish, o'quv-tarbiyaviy jarayonni modellashtira olish, shuningdek ta'lim-tarbiyaning yangi g'oya va texnologiyalarini mustaqil yaratish hamda ularni tatbiq eta olish ko'nikmalarini shakllantirish orqali oshirish muammosi bugungi kunda mavjud bo'lgan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy sharoitlarda, ayniqsa, dolzarb hisoblanadi. Shu o'rinda Prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning "Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz", degan fikrlari ishimizning maqsadiga bevosita mos keladi.[2].

O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida "Ta'lim va o'qitish sifatini baholashning xalqaro standartlarini joriy qilish asosida oliy ta'lim muassasalari faoliyatining sifati hamda samaradorligini oshirish, ilmiy-tadqiqot va innovatsion faoliyatni rag'batlantirish, ilmiy va innovatsion yutuqlarni amaliyotga joriy qilishning samarali mexanizmlarini yaratish" kabi muhim vazifalar belgilandi. Bu esa, bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy pedagogik faoliyatga tayyorlashning pedagogik shart-sharoitlarini takomillashtirishni talab etadi[2].

Pedagogik diagnostika yordamida o'quvchilarni rivojlantirish va pedagogik pedagogik korreksiya, o'qituvchilar va ota-onalarga maslaxat berish va o'qitish sohasidagi bilim va tajriba, kasbiy yunalganlik, kasbiy va shaxsiy o'zini-o'zi rivojlantirish va bu jarayonlarning birligini ta'minlaydigan sharoitlar yaratiladi. Pedagogik diagnostika yordamida o'quvchilarni rivojlantirish va pedagogik pedagogik korreksiya, o'qituvchilar va ota-onalarga maslaxat berish va o'qitish

PEDAGOGIKA

sohasidagi bilim va tajriba, kasbiy yo'nalganlik, kasbiy va shaxsiy o'zini-o'zi rivojlantirish va bu jarayonlarning birligini ta'minlaydigan sharoitlar yaratiladi.

Shu sababli quyidagilar maqsad qilib olindi:

1. "Ta'lim oluvchilarning kasbiy dunyoqarashi" tushunchasini ochib berish;
2. Ta'lim oluvchilarning kasbiy dunyoqarashining tarkibiy qismlarining tarkibini aniqlash;
3. O'quvchilarning kasbiy dunyoqarashini shakllantirish texnologiyasini ishlab chiqish;
4. Maktab o'quvchilarining professional dunyoqarashini shakllantirish bo'yicha eksperimental ishlarning samaradorligini aniqlash va boshqalar.

Ta'lim oluvchilarning kasbiy dunyoqarashi tushunchasini ochib berishda:

- dunyoviy bilimlar tizimini va kasbiy bilimlar, munosabatlar, e'tiqodlar, insoniy qadriyatlar psixodiagnostika asosida amalga oshiriladigan ideallar, o'quvchilarni rivojlantirish va pedagogik korreksiya, o'qituvchilar va ota-onalarga maslaxat berish va o'qitish;

- kognitiv tarkibiy qism, fan va kasbiy bilimlarning, qarashlarning umumlashtirilgan tizimini, e'tiqodlar, o'quvchilar faoliyatini tartibga soluvchi me'yorlar, tamoyillarni o'z ichiga olgan holda o'quvchining kasbiy dunyoqarashi tarkibiy qismlarining mazmunini aniqlash;

- qadriyatlar va ideallar; amaliy tarkibiy qism o'quvchining kasbni psixologik qullab-quvvatlashga tayyorligini, quyidagi yo'nalishlarda kasbiy faoliyatning maqsadlari va vositalarini tanlashni o'z ichiga oladi: psixodiagnostika, o'quvchilarni rivojlantirish va pedagogik korreksiya, o'quvchilar va ota-onalarga maslaxat berish va ta'lim berish;

- o'quvchilarning kasbiy dunyoqarashini shakllantirish, fan va kasbiy bilimlarni o'zlashtirishning mazmuni va usullarini kasbiy va shaxsiy rivojlanish, o'zini-o'zi rivojlantirish jarayonlari bilan uyg'unlashtiradigan texnologiya ishlab chiqish lozim.

O'quvchining shakllangan kasbiy dunyoqarashi mezonlari va ko'rsatkichlari quyidagicha aniqlanadi:

- fan va muayyan kasbga oid bilimlarni nazariy va amaliy egallash darajasi bilan belgilanadigan kasbga tayyorgarlik;

- kasbiy motivatsiya, uning ko'rsatkichi kasbga motivatsion-munosabati darajasi hisoblanadi;

- kasbiy va shaxsiy o'zini-o'zi rivojlantirish, unga erishish uchun zarur bo'lgan professionallik g'oyasi va shaxsiy salohiyat ko'rsatkichi kabilar.

Universitetda talabalarning kasbga yo'nalganligini ta'minlashning aspektlaridan biri sifatida, ularning kasbiy dunyoqarashini shakllantirish, quyidagi vazifalarni ko'rib chiqishni talab qiladi: ya'ni kasbiy psixologik va pedagogik dunyoqarashni shakllantirish mezonlari va darajalarini tanlash.

Ta'lim oluvchilarning intellektual va kasbiy harakatchanligiga bugungi kunda jamiyat tomonidan qo'yilgan talablar akmeologik darajada o'quv jarayoni ishtirokchilarining rivojlanishi va o'zini-o'zi rivojlantirish qonuniyatlarini o'rganish, akmeologik o'qitishning yangi texnologiyalarini izlash hamda rivojlantirish zaruriyatini keltirib chiqarmoqda.

Tadqiqot ishlari davomida muammoning o'rganilganlik darajasi, shuningdek, pedagogika oliy ta'lim muassasalari talabalarining kasbiy tayyorgarligiga qo'yiladigan DTS talablaridan kelib chiqib, mazkur ta'lim muassasalarining talabalari o'zlashtirishi lozim bo'lgan kasbiy tayyorgarlik mazmunini quyidagi yo'nalishlarda belgiladik:

- ijtimoiy-nazariy tayyorgarlik;
- pedagogik-psixologik tayyorgarlik;
- maxsus-metodik tayyorgarlik;
- innovatsion tayyorgarlik.

Pedagogik faoliyat yosh avlodni hayotga, mehnatga tayyorlash uchun xalq oldida, davlat oldida javob beradigan, bolalarga ta'lim-tarbiya berishga maxsus tayyorlangan odamlarning mehnat faoliyatidir. Maktab o'qituvchilarining faoliyati inson shaxsini shakllantirishga qaratilgan. Har bir bola o'z xulq atvoriga, xarakteriga ega. Bolalarni tarbiyalashda ularning ana shu o'ziga xususiyatlarini hisobga olish, o'rganish nihoyatda murakkabdir. Bunda odamlar o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlarining murakkabligini o'zida aks ettiruvchi maxsus usullardan foydalaniladi. Pedagogik faoliyatga tayyorgarlik ko'rayotgan yoshlar uning ana shunday xususiyatlarini bilishlari va o'zlarida kasbiy tayyorgarlik strategiyalarini shakllantirishlari lozim.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, pedagogika oliy ta'lim muassasalari talabalaridagi kasbiy faoliyatga amaliy yondashuv ko'nikmalari bevosita maxsus-metodik tayyorgarlik negizida shakllanishi ma'lum bo'ldi. Bo'lajak o'qituvchi kasbiy tayyorgarligi mazmuniga qo'yiladigan zamonaviy talablardan biri bu innovatsion tayyorgarlik darajasidir. Bunda – bo'lajak o'qituvchi shaxsi, ya'ni bugungi talabadagi pedagogik faoliyatga nisbatan aksiologik, akmeologik, kreativ, refleksiv yondashuvning shakllanganligi, ya'ni, ta'lim jarayonida ijodiy hamkorlik muhitining yaratilishi, o'qitish jarayoniga innovatsion texnologiyalarni tatbiq etish, o'qitishda innovatsion metodlardan samarali foydalanish, yangiliklar yaratish qobiliyati, innovatorlik faoliyatiga bo'lgan faol motivatsiyaning qaror topganligi muhim mezonlardan sanaladi. Xulosalar asosida quyidagi ilmiy-amaliy tavsiyalar ilgari suriladi:

- bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy dunyoqarashni shakllantirishda ilg'or xorijiy tajribalar va pedagogik innovatsiyalarni o'rganishga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantirish;
- bo'lajak o'qituvchilarni mashg'ulotlar jarayonida ilg'or xorijiy tajribalar va pedagogik innovatsiyalar bilan uzluksiz tanishtirib borish;
- bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy dunyoqarashni shakllantirishda pedagogik motivlarning rivojlanishi, pedagogik ta'limni zamonaviy tashkil etish, pedagogik amaliyot tarzida tashkil etilishi lozim. Faqat shundagina bo'lajak o'qituvchida kasbiy dunyoqarashni shakllantirish ko'nikma va malakasi hosil bo'ladi;
- Oliy ta'lim muassasasidagi ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishda umumiy o'rta ta'lim maktablari, akademik litseylar hamda professional ta'lim muassasalari, texnikumlar bilan mustahkam aloqalarni yo'lga qo'yish zarur.

Umuman olganda, kasbiy tayyorgarlik negizida muayyan kasb bo'yicha muvaffaqiyatli ishlashni ta'minlovchi imkoniyatlar, xulq-atvor meyorlariga amal qilish layoqati, mehnat tajribasi, kasbiy bilim, ko'nikma, malaka va kasbiy sifatlar yaxlit majmua ko'rinishida namoyon bo'ladi. Bu esa, oliy ta'lim muassasalari faoliyatining sifat ko'rsatkichlarini belgilashda talabalarda kasbiy dunyoqarashni qaror topganlik darajasini aniqlash imkoniyatini kengaytiradi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun.T: O'zbekiston 2020 yil 23 sentabr, O'RQ-637-son
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni.
3. Abdullayeva O.S. Kasb ta'limi yo'nalishi talabalarini pedagogik faoliyatga tayyorlash jarayonlari samaradorligini oshirish texnologiyalari: p.f.b.f.d. ... (PhD) disser avtor. ... Namangan – 2018. 5 b.
4. Nishonova S. Komil inson tarbiyasi. Toshkent: Istiqlol. 2003.
5. Xaydarova O.Q. Bo'lajak o'qituvchilarni ta'lim jarayoniga texnologik yondashuvga tayyorlash. p.f.n. diss... Qarshi - 2004. B. 76-97.
6. Мудрик А.В. Социализация человека: учеб.пособие для студентов высш.учеб.зав./А.В.Мудрик-2 е издание., испр.и доп. – М.: Издательский центр «Академия», 2006. – 304 б.
7. Темиров, Н. С., & Максудов, Y. K. (2023). Социальные и воспитательные факторы системы формирования национальных ценностей в вузе. "Актуальные Вопросы Экономики И Управления, Права, Психологии И Образования: Опыт Наставника" сборник научных статей ежегодной международной конференции научно-педагогических работников. Санкт-Петербург, 2023.
8. Avezboyev va boshq. Kasbiy pedagogika. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi - T.: Cho'lpon nomidagi NMIU, 2014.320 b.
9. Mirsoliyeva M.T. Pedagogika kollejlari o'quvchilarining kasbiy tayyorgarligini shakllantirish metodikasi: p.f.n. diss. avtoref. ... Toshkent – 2011. B. 8-9.
10. Abduraxmonov Kaydaul. Podgotovka buduqix uchiteley k rabote po professionalnoy oriyentatsii uchaqixsya na baze UPK. Avtoref. dis... kand. ped.nauk. – Almati: 1995. 24 s.
11. Djumayeva S., Umarova G. BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA KASBIY DUNYOQARASHNI RIVOJLANTIRISH. Academic Research in Educational Sciences Volume 3 | Issue 2 | 2022. 167-170 b.
12. Xamraueva A.F. OLIU TA'LIM MUASSASASI TALABALARINING KASBIY KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHNING MAZMUNI. Academic Research in Educational Sciences VOLUME 2 | ISSUE 10 | 2021. ISSN: 2181-1385. Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723 Directoru Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89
13. Akramjon o'g'li, A. R., & Qurbonovich, M. U. (2024). THE SPIRITUAL-MORAL EDUCATIONAL SIGNIFICANCE OF THE VIEWS ON SCIENCE AND PATIENCE IN THE TURKISH GULISTAN OR ETHICS OF ABDULLA AVLONI. International Multidisciplinary Journal for Research & Development, 11(01).
14. Maqsudov, U. Q., & Abdullaev, R. A. (2024). THE SPIRITUAL-MORAL EDUCATIONAL SIGNIFICANCE OF JADID MARIFATPARVARI ABDULLA AVLONI'S WORKS. Ekonomika i sotsium, (2 (117)-1), 422-424.
15. Maqsudov, U. B., & Akramjon o'g'li, A. R. Z. (2023). TALABALARNING MA'NAVIY-AXLOQIY KOMPETENTLIGINI JADID PEDAGOGIKASI VOSITASIDA RIVOJLANTIRISHNING IMKONIYATLARI. Farg'ona davlat universiteti, (6), 10-10.